

## JAMIYATIMIZDA GENDER MASALALARI VA HUQUQIY MADANIYAT

**Mamajanova Shaxnoza**

Andijon davlat pedagogika insituti

Huquq ta'limi yo'nalishi

1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Bugungi kunda rivojlanib borayotgan jamiyatimizda gender masalalariga bo'lgan e'tibor kuchaymoqda. Xususan, ayollar masalasi ularga yaratib berilayotgan imkoniyatlar ularning yashash tarzi, ongi va tafakkuriga, huquqiy madaniyatiga ta'sirini o'tkazmoqda. Chetdan kirib kelayotgan yot g'oyalar va "Ommaviy madaniyat" kabi salbiy va ijobiy illatlar har bir insonga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Mazkur maqola orqali jamiyatimizda huquqiy madaniyatning gender masalalariga o'tkazayotgan ta'siri haqida ma'lumot olishimiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Gender masalalari, Huquqiy madaniyat, "Ommaviy madaniyat", Oilaviy muhit, ijtimoiy mediya, gender diskriminatsiyasi

**Annotation:** Nowadays, increasing attention is being paid to gender issues in our rapidly developing society. In particular, matters related to women, the opportunities being provided to them, and the impact on their lifestyle, mindset, and legal culture are becoming more significant. Foreign ideologies and elements of "mass culture," both positive and negative, are influencing every individual. This article provides insights into how the legal culture in our society affects gender-related issues.

**Keywords:** Gender issues, legal culture, mass culture, family environment, social media, gender discrimination

**KIRISH**

Gender tenglik- huquqiy tenglik demakdir. Gender tengligi, barcha shaxslarning, ularning jinsiga qaramay, huquqiy jihatdan teng bo'lishi kerakligini anglatadi. Bu prinsp, ayrim huquqiy tizimlarda ayollar va erkaklar o'rtasidagi farqlarni bartaraf etishga qaratilgan qonunlarni o'z ichiga oladi.

Huquqiy madaniyat- bir jamiyatda huquqiy tizimning o'rnini va ahamiyatini anglashni, huquqni faqat me'yorlar to'plami sifatida emas, balki shaxslar o'rtasidagi adolatni ta'minlash vositasi sifatida tushunishni taqozo etadi.

Jamiyatimizda gender tengligi va huquqiy madaniyat masalalari bugungi kunda ko'plab ijtimoiy, siyosiy va huquqiy muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Ushbu ikki tushuncha jamiyatning barqaror rivojlanishida va fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila. Xalqaro ilmiy jurnali. 2022-1 son

Ayollar huquqlari: O'zbekistonda ayollarning huquqlarini himoya qilish va gender tengligini ta'minlash uchun bir qator qonunlar va tashabbuslar mavjud. Masalan, ayollarga nisbatan kamsitish va jinsiy ajratishlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan huquqiy meyorlar joriy etilgan. Shuningdek, ayollarni rahbar lavozimlarida ishtirok etishi uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi.<sup>2</sup>

Jamiyatimizda gender tengligi va huquqiy madaniyat masalalari bir- biriga yaqin va bir- birini qo'llab quvvatlovchi tushunchadir. Ular jamiyatning taraqqiyoti, adolat va ijtimoiy barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatimizda gender tengligi va huquqiy madaniyat muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Gender tengligi- erkaklar va ayollar o'rtasidagi teng huquqlar, imkoniyatlar va majburiyatlarni ta'minlasiga qaratilgan siyosat va amaliyotdir. Bu, nafaqat jamiyatning adolatni va barqaror rivojlanishiga, balki har bir fuqarolarning imkoniyatlarga teng kirish huquqini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Gender tengligi bo'yicha ko'plab yutuqlarga erishilgan bo'lsada, hali ham ba'zi hududlarda ayollar va erkaklar o'rtasidagi farqlar mavjud. Masalan, ayollarni ish bilan ta'minlash, ularning oliy ta'lim olish imkoniyatlari yoki jamiyatda raxbarlik lavozimida erkaklarga nisbatan kamroq etishi kabi masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda.

### METODOLOGIYA

Jamiyatda gender tengligi va huquqiy madaniyatning rivojlanishi uchun quyidagi amallarni amalga oshirish zarur:

1. Ta'lim va targ'ibot ishlari:

- Gender tengligi va huquqiy madaniyatni targ'ib qilishda ta'limning ro'li katta. Bu borada maktablar, oliy o'quv yurtlari, ijtimoiy mediya va jamoatchilik tadbirlarini o'tkazish.

- Ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratish, qizlar va ayollarni texnologiya, ilm-fan, siyosat va boshqalarga jalb qilish.

2. Huquqiy hujjatlarni kuchaytirish:

- Ayollar va erkaklarning huquqlarini himoya qiluvchi qonunlarni kuchaytirish va gender diskriminatsiyasiga qarshi aniq va qat'iy chora- tadbirlarni ishlab chiqish.

- Jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish maqsadida, qonunlarga, huquqlarga va majburiyatlarga doir hujjatlar haqida keng targ'ibot ishlarini olib borish.

3. Teng imkoniyatlar yaratish:

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 58-modda (2023-yilgi tahriri)

- Ayollar va erkaklar uchun mehnat bozorida teng imkoniyat yaratish. Ish joylarida genderga asoslangan farqlovchi muammolar va maosh farqlari bilan kurashish.

- Ayollar siyosiy va ijtimoiy faoliyatda koproq ishtirok etishga undab, gender tengligi siyosatlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

#### 4. Gender stereotiplarini yo'qotish:

- Jamiyatda mavjuda bo'lgan gender stereotiplarini bartaraf etish uchun ta'lim, media va ijtimoiy tarmoqlarda ongli targ'ibot olib borish.

- Erkaklar va ayollar o'rtasidagi rollar, mas'uliyatlar va imkoniyatlar haqida aniq va ijobiy tasavvurlarni shakillantirish.

#### 5. Huquqiy yordam va himoya xizmatlarini kuchaytirish:

- Genderga asoslangan zo'ravonlik va diskriminatsiyaga qarshi kurashish uchun huquqiy yordam va himoya xizmatlarini kengaytirish.

- Ayollar va qizlar uchun zo'ravonlik holatlari bo'yicha murojaat qilish va yordam olishda ishonchli va yengil jarayonlarni yaratish.

Bu amallarni amalga oshirishda, jamiyatda gender tengligini ta'minlash va huquqiy madaniyatni rivojlantirishda muhim qadamlarni qo'yishda yordam beradi. Umuman olganda, jamiyatda gender tengligi va huquqiy madaniyatni rivojlantirish nafaqat huquqiy islohotlar, balki ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni ham talab qiladi. Bu jarayonlar jamiyatda adolat, tenglik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi<sup>3</sup>.

### NATIJA

Jamiyatimizda gender masalalari va huquqiy madaniyat muhim ijtimoiy va madaniya masala bo'lib, ular inson huquqlari va tenglikni ta'minlashda, shuningdek, fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy ishtirokini oshirishda katta rol o'ynaydi. Gender masalalari, ayniqsa, erkaklar va ayollar o'rtasidagi tengsizlikni bartaraf etish, diskriminatsiya va stereotiplarga qarshi kurashish uchun ijtimoiy va huquqiy islohotlar talab etadi. Shu bilan birga, huquqiy madaniyat, ya'ni fuqarolarning huquq va majburiyatlari, qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish va ularga amal qilish, jamiyatning o'zini o'zi boshqarish va adolatni ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.<sup>4</sup>

<sup>3</sup> <https://uzgender.uz/ozbekistonda-gender-tenglik-boyicha-maslahat-ishlari-bajarildi-2-3/>

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. 01.09.1998. 2-modda

Gender tengligi va huquqiy madaniyatni keng jamoatchilikka tushuntirish uchun ommaviy axborot vositalarida faol targ'ibot olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda ayollar huquqlarini himoya qilish va gender diskriminatsiyasiga qarshi kurashish uchun qonunchilikka o'zgartirishlar kiritilmoqda.

### MUHOKAMA

Ommaviy madaniyatning gender tengligiga ta'siri juda kuchli va keng qamrovli bo'lib, bu masala ijtimoiy hayotda ko'plab jihatlariga ta'sir qiladi. Ommaviy madaniyat, ayniqsa, media, kino, reklama musiqa, adabiyot va boshqa kommunikatsiya vositalari orqali jamiyatning umumiy fikrini shakllantiradi. U gender rollari, stereotiplar va tenglikka oid tassavurlarni taqdim etishda katta ro'l o'ynaydi. Ommaviy madaniyatning gender tengligiga ta'siri quyidagi yo'nalishlarda nomoyon bo'ladi.

- Ayollar huquqlari va ularning ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy erkinliklari haqida ko'plab filmlar va seriallar ishlab chiqilmoqda.

- Gender tengligini targ'ib qiluvchi reklamalarda, ayollar va erkaklar teng imkoniytlarga ega bo'lishi haqida ma'lumot berilmoqda.

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

demokratizm;

xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi;

jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi;

ochiqlik va shaffoflik.<sup>5</sup>

Ommaviy madaniyat gender tengligiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. U jamiyatning fikrini shakllantirishi, gender stereotiplarini mustahkamlashi yoki ularni buzish, shuningdek, gender tengligini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun, ommaviy madaniyatdagi o'zgarishlar gender tengligi va huquqlari ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

### XULOSA

Gender diskriminatsiyasi va uning huquqiy madaniyatga ta'siri jamiyatda adolat va tenglikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Gender diskriminatsiyasi- bu biror shaxsning jinsiga asoslangan nohaq muomila yoki tazyiqdir. Bu holatlarning jamiyatdagi huquqiy madaniyatga ta'siri quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Huquqiy madaniyatning rivojlanishga to'sqinlik qiladi.
2. Diskriminatsiyaga ta'siri.
3. Jamoat va huquqni himoya qilish tizimlarida diskriminatsiyani mavjudligi.

<sup>5</sup> Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019 yildagi O'RQ-562-son, 4-modda.

4. Gender tengligi va huquqlarga bolgan hurmatni pasaytiradi.

5. Gender diskriminatsiyasining huquqiy madaniyatni o`zgartirishdagi roli.

Ijtimoiy mediyaning huquqiy madaniyatga ta'siri beqiyosdir. Bu holat murakkab jarayon bo'lib, u nafaqat huquqiy tizimni, balki jamiyatning huquqni anglab yetishi va huquqqa bo'lgan munosabatini shakillantiradi. Ushbu ta'sir bir qancha omillar orqali amalga oshadi:

- Ma'lumotlarni keng jamoaga yoyish: Ijtimoiy media huquqiy bilimlarni keng ommaga yoyishga yordam beradi. Onlayn platformalar, bloglar va forumlar huquqshunoslar va huquqshunos bo'lmagan ma'lumot almashish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa jamiyatda huquqiy madaniyatni oshiradi va huquqiy bilimlarni keng tarqatadi.

- Huquqiy masalalar bo'yicha munozaralar: Ijtimoiy media orqali huquqiy masalalar, qonunlar va sud ishlarining muhokamasi kengayadi. Jamiyatning turli qatlamlari o'z fikrlarini ifoda etishi, huquqiy muammolarni muhokama qilishi, bu esa fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga yordam beradi.

- Fuqaro huquqlarini himoya qilish: Ijtimoiy media huquqiy madaniyatni shakillantiruvchi vosita sifatida, fuqaro huquqlarini himoya qilish va ularni buzilishiga qarshi kurashishda muhim ro'l o'ynaydi.

Gender tenglikni ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, parlament yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat-kengashlari, Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etildi.

O'zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda xotin-qizlar soni Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsiyalariga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti xotin-qizlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlamentlar o'rtasida 37-o'ringa ko'tarildi<sup>6</sup>.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023-yilgi tahriri)
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. 01.09.1998
3. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019 yildagi O'RQ-562-son
4. 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son

<sup>6</sup> 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son

5. Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila. Xalqaro ilmiy jurnali. 2022-1 son

6. Gender tadqiqotlari platformasi veb-sayti; <https://uzgender.uz>

